

Samarqand viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-fevral dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

I.CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


2026-yil 1-mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 10 779 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 44 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 10 735 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-fevral oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 6 528,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 115,2 % ni tashkil etdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 703,3 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5 163,4 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,2 %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi 662,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 112,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)

2026-yil yanvar-fevral



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2024-2026 yillar yanvar-fevral, ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 3 367 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 30 ta, kichik korxona va mikrofirmalar soni 3 337 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar-fevral oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 076,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 23,8 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 2 534,3 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 125,2 % ni, viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 49,9 % ni tashkil etdi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Qo'shrabot (2,3 marta), Pastdarg'om (146,1 %), Samarqand

(113,5 %), Bulung'ur (85,3 %) tumanlari va Samarqand shahrida (126,2 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 982 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 10 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 972 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-fevral oyida umum ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 3 873,7 mlrd so'mga yetib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 12,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 66,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLA

[Ichki savdo aylanmasi](#)

Chop etishga mas'ul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: N.Abdirayimov Tel: +998712308000 (3040)	Ijrochi: Tel: +99866 235 14 42 e-pochta: info@samstat.uz	Manzil: 140100, Samarqand sh., U.Tursunov ko'chasi, 82
--	--	--	--